

| | |
|-------------|--|
| | ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari q.x.f.f.d. dotsent ToshDAU, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash" kafedrasi mudiri q.x.f.f.d., dotsent |
| M.A.Ochilov | |


Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

| N | Universitet nomi | QS | THE | O'quv dasturidagi mavzu nomi | Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar | Havolalar |
|---|---|-----|------|--|---|---|
| 1 | Gadjah Mada University | 224 | 1200 | 1-mavzu: Mevali ekinlarga kirish Introduction to fruit plants. | Hovli bog'dorchiligi va meva yetishtirish | https://drive.google.com/file/d/1TelO2q33gM5ew7zcmlJJP_5Q3n4zpWXY/view |
| 2 | CALIFORNIA, Davis (UC Davis) University | 114 | 28 | 7-mavzu: Meva va yong'oq ekish tizimlari Fruit & Nut Cropping Systems | O'simliklar fanlari | https://catalog.ucdavis.edu/departments-programs-degrees/plant-sciences/plant-science-bs/#requirementstext |
| 3 | Michigan State University | 161 | 122 | 10-mavzu: Daraxt va butalarni kesish Pruning Trees and Shrubs | Daraxtlar va butala | https://www.canr.msu.edu/foundationsof-gardening/uploads/files/Final%20Syllabus%20with%20header-VERSION.pdf |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



BOG'DORCHILIKKA KIRISH FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|---------------------------|----------|--|
| Bilim sohasi: | 800 000 | - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya |
| Ta'lim sohasi: | 810 000 | - Qishloq xo'jaligi |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60811000 | - Meva-sabzavotchilik va uzumchilik |

| Fan/modul kodlari BKB2304 | | O'quv yili 2025-2026 | Semestr 3 | Kreditlar 4 | |
|------------------------------|---|--|------------------------------|------------------------------|--|
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| | BOG'DORCHILIKKA KIRISH | 48 | 72 | 120 | |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga bog'dorchilikka kirishning ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, bu sohaning xozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi to'g'risidagi va mevachilikka yangi kirib kelgan turlarini ko'paytirishni o'rgatish.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi – Ushbu fan dala sharoitida Respublikada meva va uzum o'simliklari bog'larini barpo qilish, bog' qator oralariga ishlov berish va qulay sharoitlar yaratish, meva daraxtlariga shakl berish va kesish texnologiyasini joriy qilish, meva yetishtirishning intensiv usullarini qo'llash bo'yicha bilimlarni bugungi kun talabiga javob beradigan yetuk bilimli mutaxassislarga nazariy va amaliy jihatdan yetkazishdan iborat.</p> <p>Talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qildirishdir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Mevali ekinlarga kirish.</p> <p>Mevali ekinlarga kirish — bu bog'dorchilikning asosiy qismlaridan biri bo'lib, meva beruvchi daraxtlar, butalar va ko'p yillik o'simliklarni o'rganish va yetishtirish bilan bog'liq. Mevali ekinlar — bu odamlar uchun oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadigan mevalarni hosil qiluvchi ko'p yillik o'simliklardir. Ular asosan daraxt, buta yoki yarim buta shaklida bo'ladi.</p> <p>2-mavzu. O'zbekistonda bog'dorchilikning rivojlanish tarixi</p> <p>Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududi ko'pgina qishloq xo'jalik, shu jumladan meva ekinlarini kelib chiqish markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimdan bu hududda o'rik, qaroli, olma, nok, gilos, pista, bodom, yong'oq, uzum singari meva ekinlarining qimmatli mahalliy navlari saqlanib qolgan.</p> | | | | |

| | |
|---|--|
| 2. Ostonaqulov T.E., Narziyeva S.X. Gulomov B.X. "Mevachilik asoslari." Toshkent, 2011. O'quv qo'llanma. | |
| 3. Gulomov B.X., Islomov S.Ya., Normuratov I. Sitrus ekinlarini yetishtirish texnologiyasi. Toshkent - 2012y. O'quv qo'llanma. | |
| 4. A.U.Aripov, A.A.Aripov. "Urug'li intensiv meva bog'lari" qo'llanma Toshkent - 2013. | |
| 5. Mark Rieger. Introduction to Fruit Crops. Text edition. 2007 | |
| 6. Stephen Skelton MW. Viticulture (2nd Edition). 2020 | |
| Qo'shimcha adabiyotlar | |
| 1. Mirziyoyev Sh.M. PQ-4246-son "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori. – Toshkent, 2019 yil 20 mart. | |
| 2. Mirziyoyev Sh.M. PQ-216-son "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori. – Toshkent, 2023 yil 07 iyul. | |
| 3. Namozov I.Ch. Meva ekinlari ko'chatchiligi. Toshkent-2024. Darslik. | |
| 4. Mark Rieger. Introduction to Fruit Crops. Text edition. 2007 | |
| 5. Gulomov B., Abrorov Sh. va I.Normuratov "Mevali daraxtlarga shakl berish, kesish va payvandlash" o'quv qo'llanma Toshkent-2013yil. | |
| 6. "O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat Reestri". Toshkent – 2024. | |
| 7. Buriyev X.,Ch. Mevachilik elektron darsligi. Toshkent-2003. | |
| Axborot manbaalari | |
| 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal. | |
| 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. | |
| 3. www.ziynet.uz - O'zbekiston Respublikasi elektron kutubxona milliy bazasi. | |
| 7. Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025-yil <u>04</u> <u>avgust</u> <u>13</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. | |
| 8. Fan/modul uchun ma'sullar: X.A.Adilov – TDAU "Mevachilik va uzumchilik" kafedrası dotsent, q.x.f.f.d. (PhD). Z.Z.Nuriddinov – TDAU "Mevachilik va uzumchilik" kafedrası assistenti, q.x.f.f.d. (PhD). | |
| 9. Taqrizchilar: A.A.Qosimov – Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining | |

| | |
|---|---|
| | <p>10. Tog'li yerlarda mevachilik</p> <p>11. Tropik mevalarni yetishtirish xususiyati</p> <p>12. Ekzotik mevalarni yetishtirish xususiyati</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy komponentlari:</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - meva va uzum nav namunalarni sinash, ulardan foydalanish hamda yetishtirish jarayonlarini, mahsulotlarini yig'ib-terib olish bilan bog'lik tadbirlari; - meva va uzum mahsulotlarini yetishtirishda o'g'itlardan foydalanish, sug'orish tizimi, qator oralariga ishlov berish, parvarishlash hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish usullari; - meva va uzumchilik sohasidagi mahsus adabiyotlar, ilmiy ma'lumotlar, xorijda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlar haqida tasavvurga ega bo'lishi;(bilim) - meva va uzum mahsulotlarini yetishtirishda joyning iqlim sharoiti, tuprog'i, sizot suvini sathi, o'g'itlash miqdori, muddati, usuli, sug'orish tizimi, kasallik va zararkunandalarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini amalga oshirishni; - meva o'simliklari organlarining tuzilishi, biologik xususiyatlari, yetishtirish texnologiyasi bosqichlari, tuproqqa ishlov berish, ekish, o'simliklarni tashqi muhit omillariga munosabatini aniqlay bilish va sozlash, sug'orish, oziqlantirish va yangi istiqbolli navlar va duragaylarni tanlash va joriy etish; - meva va uzum mahsulotlarini yetishtirish xususiyatlari, ekish muddati va usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi;(ko'nikma) - mevali bog'larni yaratish, rezavor mevalar va tokni ekish, ko'paytirish, yetishtirish va qator oralariga sabzavot ekinlarini ekish texnologiyasidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.(malaka) <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys – stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 3 | <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> |
| 4 | <p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Namozov I.Ch., Xomidjonov A.A., Sattorov O.O. Meva ekinlari biologiyasi. Toshkent-2024. O'quv qo'llanma.</p> |
| 5 | |
| 6 | |

3-mavzu. O'zbekiston va jahon qishloq xo'jaligida bog'dorchilikni qiyosiy o'rganish

Bog'dorchilik qishloq xo'jaligining murakkab va ko'p qirrali sohasi hisoblanadi. Meva va rezavor meva ekinlari turli tuproq, iqlim va agrotexnika sharoitida o'stirilib, ularning mevasi turli maqsadlarda yangiligicha, quritilgan va qayta ishlangan hollarda foydalaniladi.

Bog'dorchilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarmog'i sifatida-asosiy vazifasi aholini ho'l mevalar, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashdan iborat.

Bog'dorchilik fan sifatida-meva va rezavor-meva ekinlarining tuzilishi, o'sish, ko'payish va hosil berish qonuniyatlarini, tashqi muhit omillariga munosabati va biologiyasini o'rganish asosida yuqori, sifatli hamda muttasil hosil olish texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

4-mavzu. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bog'dorchilikning o'rni.

Dunyo mamlakatlarida ekologik toza mahsulot yetishtirish va unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham axolini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik toza mahsulot yetishtirish va atrof muhitni sog'lomlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Shu bois O'zbekistonda yetishtirilayotgan meva-uzumlarining 90% dan ortig'i biologik usul bilan parvarishlanganligi bois jahon bozorida xususan Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlarida yetakchi o'rinni egallamoqda.

5-mavzu. Bog'dorchilikda "HECI" global maqsadini axamiyati.

Ta'lim tizimida "STEM" (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Mathematics – matematika) dasturini yaqin istiqbolda bosqichma-bosqich joriy etish asosida "HECI" (Humanity – insonparvarlik, Ethics – etika, Creativity – kreativlik, Imagination – tasavvur) global maqsadi (chaqirig'i) kabi kelgusi o'n yillik uchun yangi davlat talablari va ta'lim standartlarining na'munaviy modellari ishlab chiqish bugun barcha sohalar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Boisi, insonparvarlik, etika, kreativlik va tasavvurga asoslangan yondashuvlar tizimda salmoqli o'zgarishlarga olib keladi.

6-mavzu. Bog'dorchilikda "aqli" texnologiyalarni qo'llash.

O'zbekistonda «Smart» qishloq xo'jaligini joriy etish bo'yicha tahliliy ma'lumot taqdim qilinadi. Xususan, bog'dorchilikning hozirgi holati, «Smart» («aqli») qishloq xo'jaligini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan integratsiyasi, bunda xorijiy tajribaning

o'rganilgani, unga to'siq bo'luvchi muammolar, O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish dasturi to'g'risida so'z yuritiladi.

7-mavzu. Meva va yong'oq ekish tizimlari

Asosiy pomologik ekinlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimlariga umumiy nuqtai nazar, hozirgi madaniy va hosilni yig'ish muammolari va tijorat meva yetishtirish bilan bog'liq muammolar tahlili to'g'risida so'z yuritiladi.

8-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi, botanik tarkibi va biologik xususiyatlari

Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfo-biologik guruxlari. Urug'li, danakli, rezavor, yong'oqmevalar va subtropik mevalarning turlari va botanik nomlari. Meva va rezavor meva o'simliklarining yer ustki qismi, xosilga kirishi va yashashiga ko'ra guruxlash.

9-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfologik tuzilishi

Amaliy va nazariy mevachilikda o'simliklarning yer ostki va yer ustki qismlarini o'zaro korrelyatsion bog'liqligi, o'suvchi va xosil beruvchi kurtaklarni joylashuvi, o'suv va tinim fenofazalari va tashqi muxit sharoitlariga bo'lgan talabi o'rganiladi. O'simliklarni asosiy sistemalari: ildiz, shoxlar, barg, gul, o'suvchi va xosil beruvchi kurtaklardan gerbaryalar, fotosuratlar va vedeotasmalar tayyorlash va ular xaqida tassovurga ega bo'lishlari talab etiladi.

10-mavzu. Daraxt va butalarni kesish

Meva daraxtlari qishki va yozgi kesish mavsumida daraxtlarning ko'p shoxlarini kesish orqali keyingi yilda ko'plab yangi va yosh novdalar rivojlanadi, urug'li mevalilarda o'suvchi novdalar, danakli mevalilarda esa hosil beruvchi novdalar rivojlanadi, quyosh nurini daraxtning ichki tomoniga tushishi ta'minlash, novdalarini siyraklashtirish, uchki qismini qisqartirish ahamiyatli jihatlarni, hosildorlikni oshirish omillarini o'rganish.

11-mavzu. Meva va rezavor meva o'simliklarini ko'paytirishning biologik asoslari

Meva va rezavor meva o'simliklarini jinsiy(urug'dan) va jinsiz(vegetativ) yo'l bilan ko'paytirish. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy qismlari. Meva daraxtlari uchun asosiy payvandtaglar. Mevali ekinlar ko'chatini etishtirish usullari. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy qismlari. Ko'chatlarni etishtirish uchun joy tanlash.

12-mavzu. Mevali o'simliklarni tog'li zonalarda yetishtirishning ahamiyati

Meva ekinlarni tog'li yerlarda o'stirishni xo'jalik - biologik xarakteristikasi. O'zbekiston Respublikasi meva osimligini tog' sharoitida yetishtirishni xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Mevalarni sanoat darajasida tog' hududlarida yetishtirish yo'llari. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan mevalarni tog' hududlarida o'sadigan asosiy turlari, xillari va navlari. Navlarning tog' hududlarini tuproq-iqlim sharoitiga mos keladiganlarini tanlash. Tog'da o'sadigan mevali ekinlarni ko'paytirish usullari va payvandtaglari. Tog'da yetishtiriladigan mevalarni shifobaxshligi, ekologik tizim va iqtisodiyotdagi o'rni.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Meva va rezavor meva o'simliklarini biologik - xo'jalik guruxlarga ajratish.
2. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfologik tuzilishi.
3. Zamoviy bog'dorchilikda "aqli" texnologiyalarni qo'llash.
4. Intensiv bog' barpo etish va loyhasini tuzish.
5. Rayonlashtirilgan meva, uzum va rezavor meva o'simliklarining navlarini tavsifi.
6. Urug'li mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
7. Danakli mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
8. Rezavor mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
9. Yong'oq mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
10. Subtropik mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
11. Sitrus mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.
12. Tropic va ekzotik mevalarning biokimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida mevali o'simliklarni tarqalgan zonalari va ularga qisqacha tavsifnoma berish.
2. Olmani standartnavlarini yetishtirish texnologiyasi.
3. Nokni standart navlarini yetishtirish texnologiyasi.
4. Subtropik o'simliklarni xo'jalik tavsiloti va ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.
5. Danakli o'simliklarni turlariga tavsif berish va asosiy navlarini yetishtirish texnologiyasi.
6. Yong'oq va rezavor mevalarni yetishtirish texnologiyasi.
7. Sitrus mevalarni yetishtirish texnologiyasi.
8. Mevali ko'chatzor barpo qilish texnologiyasi.
9. Bog'larni barpo qilish va ularni parvarishlash.